
MEVAZOR MFY MISOLIDA MAHALLABAY ISHLASH TIZIMI O'RGANILDI

Mamlakatimizda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholining yashash sharoitini tubdan yaxshilash va hayot darajasini yuksaltirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ularning haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan dolzarb muammolarni bartaraf etilmoqda.

Tuman prokurori Rashidbek Mehmonov hamda korxon va tashkilot rahbarlaridan iborat ishchi guruh Mevazor MFYda bo'lib mahalladagi "ettilik" - mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori, ijtimoiy xizmat xodimi, soliq inspeksiya xodimining faoliyati o'tganildi. Mahallalarda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, va kelgusidagi rejalar, "Sayxunobod va Uychi tajribalari" misolida qilingan ishlar bilan tanishildi. Mahalla yettiligida bugungi kundagi dolzarb masalalar yuzasidan topshiriqlar berildi.

Xususan, elektr energiyasini iqtisod qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, mustaqillik bayramini yuqori saviyada o'tkazish, oziq-ovqat zahiralari yaratish, pholi muammolarini aniqlash, ularga munosib turmush sharoitlarini yaratish, ularni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida xonadonbay o'rganish ishlari yo'lga qo'yiish yuzasidan vazifalar berildi hamda ularning ish faoliyatidagi muammolar ko'rib chiqildi.

Hozirda, sektor shtabi tomonidan aholi muammolarini aniqlash va ularni tizimli hal qilish borasida ishlar davom ettirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sektor rahbari hamda ishchi guruhi a'zolarining hudud aholisiga ishonchli maslakdosh, muammolarini ijobiy hal qilishda yaqin ko'makchiga aylanganidan barcha xursand. Bu xalqimizning davlatimizdan roziligi, ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda.

2024-08-14 14:59:10